



Fransuz tilini o'qitishda kasbiy yo'naltirilgan yondashuvning nazariy asoslari

Narzulloyeva Ra'no Mardonovna –

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

E-mail: ranonarzulloyeva024@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-6644-1595>

Annotatsiya. Mazkur maqolada fransuz tilini o'qitishda kasbiy yo'naltirilgan yondashuvning nazariy asoslari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda globallashtirish sharoitida chet tillarni o'qitishning zamonaviy tendensiyalari, xususan, kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Muallif kasbiy yo'naltirilgan ta'limning lingvodicidik asoslarini ochib berib, uning asosiy komponentlari sifatida kommunikativlik, funktsionallik, integrativlik va kontekstual yondashuv prinsiplarini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: fransuz tili, kasbiy yo'naltirilgan yondashuv, lingvodicidika, kommunikativ kompetensiya, metodika, interaktiv ta'lim, kasbiy leksika, ta'lim nazariyasi, chet tillarni o'qitish.

Теоретические основы профессионально-ориентированного подхода в обучении французскому языку

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы профессионально-ориентированного подхода в обучении французскому языку. В исследовании анализируются современные тенденции иноязычного образования в условиях глобализации, подчёркивается важность формирования профессиональной коммуникативной компетенции. Автор раскрывает лингводидактические основы профессионально-ориентированного обучения иностранному языку и выделяет ключевые принципы данного подхода, такие как коммуникативная направленность, функциональность, интеграция и контекстуализация.

Ключевые слова: французский язык, профессионально-ориентированный подход, лингводидактика, коммуникативная компетенция, методика обучения, интерактивное обучение, профессиональная лексика, теория образования, обучение иностранным языкам.

Theoretical foundations of the professionally oriented approach to teaching the french language

Annotation. *This article examines the theoretical foundations of the professionally oriented approach in teaching the French language. The study analyzes modern trends in foreign language education within the context of globalization, emphasizing the importance of developing professional communicative competence. The author explores the linguodidactic basis of professionally oriented language teaching and identifies key principles such as communicative orientation, functionality, integration, and contextualization.*

Keywords: *french language, professionally oriented approach, linguodidactics, communicative competence, methodology, interactive learning, professional vocabulary, educational theory, foreign language teaching.*

KIRISH

Zamonaviy globallashuv sharoitida ta'lim tizimi, xususan, chet tillarni o'qitish jarayoni tubdan yangilanib, uning mazmuni, maqsadi va metodologik asoslari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari bilan uzviy bog'lanmoqda. Bugungi kunda turli kasblarga bo'lgan talabning ortishi, xalqaro hamkorlikning kengayishi va madaniyatlararo aloqalarning jadallashuvi chet tillarni, jumladan, fransuz tilini kasbiy yo'naltirilgan asosda o'qitishni dolzarb masalaga aylantirdi. Bunday yondashuv talabalarga faqat umumiy til bilimlarini egallash imkonini berib qolmay, balki ularning tanlangan kasbiga xos terminologiya, maxsus leksika va professional kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada talabalar global mehnat bozorida raqobatbardosh, kommunikativ jihatdan yetuk mutaxassis sifatida shakllanadi[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

XXI asrga kelib axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi insonlar o'rtasidagi kommunikatsiya shakllarini tubdan o'zgartirdi. Internet va raqamli platformalar orqali turli millat va elat vakillari o'rtasida madaniy, ilmiy va iqtisodiy aloqalar kengaydi. Bu jarayon tillarning, ayniqsa xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan fransuz tilining o'rganilishiga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Fransuz tili bugungi kunda ko'plab davlatlarda rasmiy til sifatida qo'llanilishi, xalqaro tashkilotlar va diplomatik aloqalarda faol ishlatilishi bilan ajralib turadi. Shu sababli uni o'rganish nafaqat lingvistik, balki strategik ahamiyatga ham ega. Til orqali insoniyatning tarixiy, madaniy va ilmiy yutuqlari aks etishini hisobga oladigan bo'lsak, chet tillarni o'rganish shaxsning intellektual rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim nazariyasi pedagogikaning muhim sohasi bo'lib, u bilim, ko'nikma va malakalarni egallash qonuniyatlarini, o'qitishning mazmuni, metodlari va shakllarini o'rganadi. Ushbu nazariya doirasida o'qitishga yondashuv va didaktik prinsiplar asosiy kategoriyalar sifatida qaraladi. O'qitishga yondashuv til o'qitish jarayonining umumiy strategiyasini belgilaydi va o'qituvchi hamda talabaning faoliyatini muvofiqlashtiradi. U til nazariyasi va o'rganish nazariyasining integratsiyasiga asoslanib, o'qitish metodlarini tanlashda muhim mezon vazifasini bajaradi. Prinsip esa o'qitish jarayonining me'yoriy asosini tashkil etib, pedagogik faoliyatni tartibga solidi[2].

Chet tillarni o'qitish metodikasi til materiallari asosida o'qitishning maqsad, mazmun, metod va vositalarini o'rganuvchi fan sifatida shakllangan. Bu fan tilshunoslik, pedagogika, psixologiya va psixolingvistika kabi bir qator fanlar bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Chet tilini o'rganish jarayoni faqat grammatik qoidalarni o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki nutq faoliyatining barcha turlarini tinglash, gapirish, o'qish va yozishni ham qamrab oladi.

Bundan tashqari, til o'rganish jarayonida talabalar boshqa xalqlarning madaniyati, urf-odatlar va qadriyatlar bilan ham tanishadi.

Til o'qitish metodikasining tarixiy rivojlanishi turli metodlarning paydo bo'lishi va takomillashuvi bilan bog'liq. Grammatik-tarjimaviy metod til o'rganishning dastlabki bosqichlarida keng qo'llanilgan bo'lib, u grammatik qoidalarini yodlash va matnlarni tarjima qilishga asoslangan. Ushbu metod tilning struktur jihatlarini chuqur o'rganishga imkon bergan bo'lsa-da, talabalarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda yetarli samara bermagan. Keyinchalik to'g'ridan to'g'ri metod paydo bo'lib, unda tilni tabiiy yo'l bilan o'zlashtirish, tarjimadan voz kechish va og'zaki nutqqa e'tibor qaratish asosiy tamoyil sifatida qaraldi[3]. Audio-lingual metod esa takrorlash va takrorlash mashqlari orqali nutq ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, XX asr o'rtalarida keng qo'llanilgan. Grellet F. ishida grammatik qoidalarini real hayotiy kontekstlar va vazifaga yo'naltirilgan mashqlar orqali o'rgatish talabalarning qoidalarini amalda qo'llash qobiliyatini oshirishini, shu bilan birga ularning nutqiy aniqligi va ravonligini yaxshilashini ko'rsatadi[4].

O'zbekistonda texnik xorijiy tilni o'qitish bo'yicha izlanish olib borgan olim N. Teshaboyeva quyidagi nazariy xulosani ilgari suradi:

“Metallurgiya kabi tor ixtisosliklarda “Grammatika uchun grammatika” tamoyilidan voz kechib, “Ehtiyoj uchun grammatika” tamoyiliga o'tish lozim. Masalan, metallarning kimyoviy reaksiyalarini tasvirlashda faqat hozirgi zamon (*Présent*) va majhul nisbat (*Forme passive*) qurilmalarini chuqurlashtirib o'rgatish kifoya[5].

Zamonaviy metodikada esa kommunikativ yondashuv ustuvor o'rin egallaydi. Ushbu yondashuv tilni muloqot vositasi sifatida o'rganishga asoslanadi va talabani ta'lim jarayonining markaziga qo'yadi. Kommunikativ yondashuv talabalarning real hayotiy vaziyatlarda tilni qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv kasbiy yo'naltirilgan til o'qitish konsepsiyasining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki kasbiy yondashuv ham tilni real vazifalar va professional ehtiyojlar asosida o'rganishni nazarda tutadi. Celce-Murcia M. va Larsen-Freeman D. tadqiqotlarida kommunikativ grammatik o'qitish nazariy bilimlar bilan amaliy til qo'llanilishi o'rtasidagi bo'shliqni to'ldirishga yordam berishini, talabalarning o'quv jarayoniga faolligini, motivatsiyasini va nutqqa bo'lgan ishonchini oshirishini ta'kidlaydi[6]. Diane Larsen-Freeman grammatikani o'rganishni “bilim to'plash” emas, balki “ko'nikma shakllantirish” deb ataydi. U o'zining “Teaching Language: From Grammar to Grammaring” asarida quyidagilarni ta'kidlaydi:

- ✓ Grammatika – bu turg'un (qo'zg'almas) bilim emas, balki dinamik jarayon.
- ✓ Talaba qoidani yodlagani bilan unga "ishonch" (confidence) kelib qolmaydi; ishonch faqat o'sha qoidani real nutqiy vaziyatlarda qo'llash orqali paydo bo'ladi.

- ✓ O'qituvchining vazifasi — darsni shunday tashkil etishki, talaba grammatikani "ishlatishga" majbur bo'lsin.

- ✓ Marianne Celce-Murcia o'z tadqiqotlarida o'qitishning “Discovery Learning” (Kashfiyot orqali o'rganish) metodini qo'llab-quvvatlaydi. Bunda:

- ✓ Talabalar qoidani tayyor holda olmaydilar, balki matn yoki nutq ichidan o'zlari qidirib topadilar.

- ✓ Bu jarayon talabalarning motivatsiyasini oshiradi, chunki ular o'quv jarayonining passiv tinglovchisi emas, balki faol ishtirokchisiga aylanadi.

Kasbiy yo'naltirilgan yondashuv talabaning kelajakdagi faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan til ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuvda asosiy e'tibor kasbiy kommunikatsiya, maxsus terminologiya va professional vaziyatlarda tilni qo'llashga qaratiladi. Masalan, sanoat sohasida mutaxassislarning zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini tushuna bilish, turli tillardagi y'oriqnomalarni yoki hujjatlarni tahlil qilish kabi vazifalar til o'rganish jarayonining ajralmas qismiga aylanadi. Bunday yondashuv talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish qobiliyatini ham oshiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kasbiy yo'naltirilgan til ta'limining nazariy asoslari kompetensiyaviy model bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu modelga ko'ra, talabalarda lingvistik, kommunikativ, sotsiomadaniy va strategik kompetensiyalar shakllantiriladi. J.Jalolovning ta'kidlashicha, lingvistik kompetensiya tilning fonetik, leksik va grammatik tizimini bilishni anglatadi, kommunikativ kompetensiya esa ushbu bilimlarni real muloqot jarayonida qo'llash qobiliyatini ifodalaydi. Sotsiomadaniy kompetensiya tilni o'rganilayotgan xalq madaniyati bilan bog'liq holda anglashni nazarda tutsa, strategik kompetensiya kommunikativ vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal etish usullarini o'z ichiga oladi[7].

Didaktik prinsiplar kasbiy yo'naltirilgan yondashuvning metodologik asosini tashkil etadi. Kommunikativlik, funksionallik, integrativlik va kontekstual yondashuv prinsiplari til o'qitish jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Kommunikativlik prinsipi talabalarning faol muloqotini rag'batlantirsa, funksionallik prinsipi til birliklarini ularning amaliy vazifasi bilan bog'liq holda o'zlashtirishni ta'minlaydi. Integrativlik prinsipi esa til o'rganishni boshqa fanlar bilan uyg'unlashtirish orqali kompleks bilimlarni shakllantiradi.

Fransuz tilini o'qitishda grammatik materiallarni kommunikativ kontekstda o'rganish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, grammatik qoidalarni real vaziyatlar asosida o'rgatish talabalarning nutqiy aniqligi va ravonligini oshiradi. Vazifaga yo'naltirilgan mashg'ulotlar esa talabalarning faolligini kuchaytirib, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Shu bois zamonaviy ta'limda grammatikani kommunikativ yondashuv asosida o'rgatish ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi.

Interaktiv metodlar kasbiy yo'naltirilgan til ta'limining muhim komponenti hisoblanadi. Rolli o'yinlar, simulyatsiyalar, loyiha ishlari va muammoli vaziyatlar talabalarning real kasbiy vaziyatlarga tayyorlanishiga xizmat qiladi. Bunday metodlar talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, jamoada ishlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Interaktiv metodlar va rolli o'yinlarning samaradorligi E.I.Passovning kommunikativ o'qitish tamoyillari bilan asoslanadi. Olimning ta'kidlashicha, o'quv jarayoni muloqot jarayonining modeli sifatida qurilishi va maksimal darajada real muloqot muhitiga yaqinlashtirilishi shart. Shu bilan birga, bu metodlar talabalarning motivatsiyasini oshiradi va ularni faol o'rganishga undaydi[8]. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi o'zbek metodikasida J.Jalolov tomonidan tizimlashtirilgan bo'lsa, G'arb olimlari J.Richards va T.Rodgers uni til va muloqotning uzviy bog'liqligi sifatida tavsiflaydi. Ayniqsa, muloqot davomida yuzaga keladigan to'siqlarni bartaraf etishda H.D.Brown ta'kidlagan strategik kompetensiya o'rni beqiyos bo'lib – bu muloqotdagi to'siqlarni (bilim yetishmasligi yoki nutqiy jarayondagi xatoliklar tufayli yuzaga kelgan uzilishlarni) qoplash uchun verbal va nonverbal muloqot strategiyalaridan foydalanish qobiliyatidir[9]. O'zbek olimlaridan Jalolov o'zbek auditoriyasi uchun metodik bazani yaratgan bo'lsa, Richards & Rodgers darsning strukturasini (metodologiyasini) belgilaydi va H.D.Brown esa talabaning tildan amaliy foydalanishda qo'rqmasligi uchun “psixologik va texnik qurol” ya'ni strategiya haqida tushanchalar beradi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish kasbiy yo'naltirilgan til o'qitish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Onlayn platformalar, multimedia vositalari va interaktiv dasturlar o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Ushbu vositalar talabalarga mustaqil o'rganish imkonini yaratib, bilim darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Fransuz va o'zbek tillarining tipologik farqlari ham o'qitish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ushbu tillarning fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini qiyosiy o'rganish talabalarga tilni chuqurroq anglashda yordam beradi. Bu esa ayniqsa kasbiy terminologiyani o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Texnika oliy o'quv yurtlarida fransuz tilini o'qitishning asosiy maqsadi – talabalarni o'z mutaxassisliklari bo'yicha xorijiy tilda erkin muloqot qilish va sohaviy adabiyotlarni tahlil etish ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. O'zbek metodist olimi I.I. Ismoilov ta'kidlaganidek, texnik

yo'nalishdagi talabalar uchun chet tili faqat nazariy bilim emas, balki kasbiy faoliyatning muhim quroli sifatida xizmat qilishi lozim. Shuningdek I.I.Ismoilov texnik oliy o'quv yurtlarida chet tili o'qitishni professional mazmun bilan to'ldirish masalasini tadqiq etar ekan, talabaning sohaviy terminologik bazasini ustuvor vazifa sifatida belgilaydi.

XULOSA

Fransuz tilini o'qitishda kasbiy yo'naltirilgan yondashuv zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. U talabalarning lingvistik bilimlarini kasbiy faoliyat bilan integratsiya qilib, ularni global mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvning nazariy asoslari pedagogika, lingvistika va psixologiya fanlarining ozaro uyg'unlashuvi natijasida shakllanib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks tizimni tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mangiante, J. M., & Parpette, C. Le Français sur Objectif Spécifique: de l'analyse des besoins à l'élaboration d'un cours. Hachette, 2004
2. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2014
3. Jalolov, J. J. Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 432 b.
4. Grellet, F. Developing Communicative Competence through Grammar Practice. Paris: Didier, 1996.
5. Teshaboyeva, N. M. Kasbga yo'naltirilgan xorijiy tilni o'qitishda ehtiyojlarni tahlil qilish tamoyillari. Xorijiy tillarni o'qitishning dolzarb masalalari, 2012 (2), 45-50.
6. Larsen-Freeman, D., & Celce-Murcia, M. The Grammar Book: Form, Meaning, and Use for English Language Teachers (3rd ed.). National Geographic Learning, 2015
7. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 432 b.
8. Пассов, Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – 2-е изд. – М. : Просвещение, 1991. – 223 с.
9. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. 5th ed. – White Plains, NY: Pearson Education, 2007. – 410 p.